

## **METONIMIYA VA UNING LEKSIY XUSUSIYATLARI**



*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistranti*

*Allayorova Azizaxon Olimjon qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada metonimiya nimaligi, uning ishlatalish o'rni va ahamiyati haqida umumiy tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin va bundan tashqari metonimiya ko'chim turi va uning dunyo tilshunosligida tutgan ahamiyati haqida so'z yuritib, metonimiyaning turlaridan namunalar keltirib o'tadi.

**Kalit so'zlar:** Metonimiya, sinekdoxa, zoomorfik, fitomorfik, antromorfik, ximiomorfik va boshqalar.

### **METONYMY AND ITS LEXICAL FEATURES**

**Abstract:** In this article, you can get a general understanding and information about what metonymy is, its use and significance, and in addition, it will talk about the type of metonymy transfer and its significance in world linguistics, giving examples of the types of metonymy.

**Keywords:** Metonymy, synecdoche, zoomorphic, phytomorphic, anthropomorphic, chemomorphic, etc.

### **МЕТОНИМИЯ И ЕЕ ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ**

**Аннотация:** Эта статья предоставит вам общее представление и информацию о том, что такое метонимия, ее использовании и значении. Кроме того, будут рассмотрены типы переноса метонимии и их значение в мировой лингвистике, а также приведены примеры типов метонимии.

**Ключевые слова:** Метонимия, синекдоха, зооморфный, фитоморфный, антропоморфный, хемоморфный и т. д.



Metonimiya - bu majoziy til yoki nutq figurasi bo'lib, narsani nomi bilan bildiradi. U bilan bog'liq bo'lgan narsaning. Asl narsa o'rnini bosuvchi so'z metonim deb ataladi.

Metonimiya – ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqeа-hodisaning nomi boshqasiga ko'chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o'rtasidagi o'xshashlikka emas, balki ular o'rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi.

Masalan: Barmog'imni kesib oldim

Turlari

Bu ko'chim bir qancha ko'rinishlarga ega:

1. Kishi yoki narsaga xos xususiyat o'sha kishi yoki narsaning nomiga o'tkaziladi:

Ahyon-ahyon gazetlarda ko'rinasan,

O'qiguncha yopishaman juda jazman.

(G'afur G'ulom)

2. Muallifning nomi uning asari o'rnida qo'llanadi:

Fuzuliyni oldim qo'limga,

Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi...

(Hamid Olimjon)

3. Biror narsaning harakati yoki uning natijasi shu harakatni bajaruvchi qurolning nomiga ko'chiriladi: Uning perosi qasos o'ti bilan yonadi.

4. Biror narsani u yasalgan material bilan almashtirib ataladi:

Po'lat qush ham qomatin rostlab,

Bulutlarni etar tumtaraq.

(Hamid Olimjon)

5. Ma'lum joydagи kishilar ma'nosi shu joyga ko'chiriladi: Majlisga butun qishloq keldi. (Abdulla Qahhor)

Metonimiyalar eng ko'p qo'laniladigan ko'chim turlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham uni ko'pchilik olimlar o'rgangan va quyidagi turlarga ajratgan. Dunyo tilshunosligida zoomorfik, fitomorfik, antromorfik, ximiomorfik,



vegetatomorfik kabi metonimiylar mavjud. Xususan, Arastu davridan boshlangan metaforologik tadqiqotlar sirasida zamonaviy tadqiq usullari asosida bir til asosida yoki qiyosiy aspektda – turli aspektlarda atroflicha o`rganildi va o`rganilmoqda.

Shu o`rinda fitomorfik va fitonimik atamalarini bir-biridan farqlashimiz lozim bo`ladi. Fitonimik Metonimiya deganda faqat o`simlik nomlari asosidagi nom ko`chishlari nazarda tutiladi: chinor (“uzoq umr”), sarv (“qad”), lola (“chiroy”) kabi. Biroq fitomorfik metonimiyyada o`simlik nomlari, xususiyatlari, qismlari, hosil, mahsulot nomlarining metaforik qo`llanilishi nazarda tutiladi:

danak (“nevara”), ildiz (“ajdodlar”), meva (“farzand”) kabi. Misol uchun: Danagidan mag’zi shirin.

Muhabbat mevasi, umring chinordek uzun bo’lsin kabilar.

O`simliklar xalqlar turmush tarzida keng ahamiyatga ega. Xalq hayotini o`simliklarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. O`ziga xos iqlim sharoiti, suvgaga bo`lgan munosabat, undan kelib chiquvchi organizmning oziq-ovqatlarga bo`lgan ehtiyojining o`ziga xosligi, o`simliklar dunyosining rang-barangligi, shuningdek, muhitga bog`liq ravishda milliy va diniy dunyoqarashning o`ziga xos tarzda shakllanganligi kabi qator omillar xalqimizning borliqni o`ziga xos tarzda idrok etishi, tasniflashi, tilda mavjud birliklar bilan nomlash va qayta nomlashni taqozo qiladi. Masalan, o`zbek tilining botanik terminologiyasi boshqa terminologik tizimdan, xususan, jonli xalq so`zlashuv nutqidan keskin farqlanadi. O`zbek tilining botanik terminologiyasi ishlanganligi, o`simlik nomlari leksemalari sistemaviy asoslarda tadqiq qilinganligi bizning ishimizni ma`lum darajada osonlashtiradi.

Tabiiyki fitomorfik metonimiyyada fitonimik leksikaga asoslaniladi.

Fitonimik leksika atalmishlari ildizsimonlar, maysalar, poyalilar, butalar va daraxtlardan iborat bo`lib, ularning ilmiy, badiiy, so`zlashuv uslubi hamda turli dialektlardagi varintlarini qamrab oladi.

Albatta, o`simliklardan olingan oziq-ovqat yoki dori (malham) nomlari ham metaforik qo`llanishlarga ega bo`lishi mumkin. Bunda ularning periferiyadagi

o'rni masalasi e'tiborga molik bo'ladi. Agar metaforik qo'llanishga asos bo'layotgan so'z periferiyadan tashqari chiqqan bo'lsa, aniqrog'i, ularni qurshov yoki markaz bilan bog`lab turuvchi semantik "ip"lar kuzatilmasa, ularni tadqiqqa tortish maqsadga muvofiq emasligi e'tiborga olindi. Masalan, o'simliklardan olingen dori mahsulotlari ikki turga bo`linadi:

- a) xalq tabobatida ishlatalidigan dorivor o'simliklar;
- b) zamonaviy tibbiyotda ishlatalidigan farmakologiya mahsulotlari nomlari.

Xalq tabobatida qo'llanilidagan o'simlik nomlari va ularga bevosita daxldor atamalar fitomorfik leksemalar semantikasidan uzilmagan yoki ularning aynan qo'llanishlari bo'ladi. Masalan, sumbul, ravoch, kavrak, ifor, takasaqol, kiyik o't kabi.

Zamonaviy meditsinida qo'llanadigan dorivorlar ma'lum bir o'simliklar asosida tayyorlangan bo'lsa-da, ularning tarkibi, xususiyati ko'zda tutilayotgan fitonim bilan bog`liqligi jamiyat a`zolari tomonidan sotsial e'tirof etilmagan bo`lishi mumkin va odatda, bunday dori mahsulotini bevosita o'simlik bilan bog`lash kontseptual xarakterga ega emas. Shu boisdan metaforik talqinda metaforologiya semantik uzhishiga uchragan birliklarni asos markaz yoki qurshov leksemalari bilan bog`lab ish ko'rilmaydi.

Fitomorfik metonimianing aksariyati lingvistik metonimiyadan ko'ra mental tabiat bilan xarakterlanadi. Zero, yangi ifodalanayotgan metaforik ma`no, avvalo, mentallik xususiyati, milliy ruhiyat bilan omuxtalashgan bilimlarni aks ettirishi bilan xarakterlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём // Теории метафоры. – М.: УРСС Эдиториал, 2004. – 256 с..
2. Лихачев Д. С. Очерки по философии художественного творчества. — СПб.: БЛИЦ, 1999. — 191 с.



3. Лукьянова Н. А. Семантические процессы в лексико-семантических группах // Семантические процессы в системе языка. Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 1984. – С. 24-27.
4. Мамадалиев А. К выражению персонификации в актантной структуре предложения: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1982. – 24 с.
5. Молчанова А. Н. О переносно-образных значениях слов // Аспекты лексического значения. – Воронеж, 1982. – С. 23-29.
6. Морковкин В. В. Лексическая многозначность и некоторые вопросы ее лексикографической интерпретации // Русский язык. Проблемы художественной речи, лексикологии и лексикографии. Виноградовские чтения. IX-X / Отв. ред. Н.Ю. Шведова.-М., 1981.-С. 153-166